

21«11»2022 yil.

75-12-180-XT/2022-son

-son SHARTNOMA

«GRAND WOODWORKERS» MCHJ bundan buyon matinda «Sotuvchi» deb ataluvchi nomidan rahbari U.Yuldashev faoliyatini amalga oshiruvchi bir tomondan va Urganch shahar 93-son «Skalioz bilan kasallangan bolalar uchun sanatoriya turidagi» maktab - internat bundan buyon matnda «Xaridor» deb ataluvchi nomidan direktor Z.Kutlimuratova faoliyatini ko'rsatuvchi, ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1.SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Sotuvchi» o'ziga tegishli tovarni «Xaridor» ga mulk qilib topshirish, «Xaridor» esa ushbu tovarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Tovar haqida ma'lumotlar: Ushbu shartnomaning 1.3 kismidagi № 1 jadvalida kursatilgan.

1.3.

№	Maxsulot turi	O'l. bir.	Miqdori	Narxi QQS bilan	Umumiy qiymati QQS bilan
1	Parta 3 lik O'quvchilar uchun stol stul jamlanmasi	tuplam	18	850000	15 300 000
2	Stul vip, karkas metall profil	dona	1	2040000	2 040 000
3	Stul karkas metall profil	dona	1	1500000	1 500 000
4	Stol	dona	1	2400000	2 400 000
5	Stul o'quvchi uchun (parta uchun)	dona	60	180000	10 800 000
6	Stol (t obraz stol)	dona	1	1200000	1 200 000
7	Skameyka taxtadan, profel metall	dona	8	1600000	12 800 000
8	Podstavka obuv metal karkaz 3 etaj	dona	6	700000	4 200 000
9	Kreslo raxbar uchun	dona	1	3800000	3 800 000
10	Stul - metal stalnoy tavar uchun	dona	2	480000	960 000
11	Divan kreslo Yumshok mebel	tuplam	1	6000000	6 000 000
12	Mebel tuplami (raxbar xonasiga)	dona	1	6800000	6 800 000
13	Veshalka kiyim ilish uchun (kichik)	dona	6	1500000	9 000 000
14	Veshalka kiyim ilish uchun (katta)	dona	6	200000	12 000 000
15	Gul kuyish uchun (Podstovka) metal	dona	6	800000	4 800 000
16	Doska	dona	12	1280000	15 360 000
17	Kiyim shkaf	dona	6	900000	5 400 000
18	Kitob qo'yish uchun shkaf	dona	20	800000	16 000 000
19	Stol (tarbiyachi ish stoli)	dona	11	700000	7 700 000
20	Parta 6 lik O'quvchilar uchun stol stul jamlanmasi	tuplam	26	900000	23 400 000
21	Parta 5 lik O'quvchilar uchun stol stul jamlanmasi	tuplam	26	880000	22 880 000
22	Parta 4 lik O'quvchilar uchun stol stul jamlanmasi	tuplam	18	870000	15 660 000
JAMI:					200 000 000

1.4. Tovarning umumiy bahosi 200 000 000 (Ikki yuz million) so'mni tashkil etadi.

1.5. Shartnomaning 200 000 000 (Ikki yuz million) so'mi byudjet mablag'i xisobidan 0,00 so'mi byudjetdan tashqari mablag' xisobidan amalga oshiriladi.

2. TO'LOV SHARTLARI

- 2.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Xaridor» «Sotuvchi»ning hisob-raqamiga shartnomada ko'rsatilgan mahsulot miqdori summasining 30 foizini oldindan qolgan 70 foizi mahsulot to'liq yetkazib berilgandan keyin o'tkazishni o'z zimmasiga oladi.
- 2.2. To'lov shakli: Pul Sotuvchining xisob raqamiga o'tkazish yuli bilan amalga oshiriladi.

3. TARAFLAR HUQUQLARI

- 3.1. «Xaridor» ning huquqlari:
- 3.1.1. Zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni, ekspertlarning yozma xulosalarini so'rash va olish, mutaxassislar bilan maslahatlashish;
- 3.1.2. «Sotuvchi» ning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik jihatlari xususidagi ma'lumotlarni to'plash;
- 3.1.3. Ushbu shartnoma asosida belgilangan mahsulotlarni o'z vaqtida va sifatli mahsulotni yetkazishni «Sotuvchi» dan talab qilishga;
- 3.1.4. «Sotuvchi» dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni talab qilishga haklidir.
- 3.2. «Sotuvchi» ning huquqlari:
- 3.2.1. Zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni, ekspertlarning yozma xulosalarini so'rash va olish, mutaxassislar bilan maslahatlashish;
- 3.2.2. «Xaridor» ning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik jihatlari xususidagi ma'lumotlarni to'plash;
- 3.2.3. Ushbu shartnoma asosida belgilangan mahsulotlar uchun oldindan xaq to'lashni va amaldagi shartnoma va qonun xujjatlarida belgilangan tartibda xisob-kitoblarni amalga oshirishni «Sotuvchi» dan talab qilishga;
- 3.2.4. «Xaridor» dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni talab qilishga haklidir.

4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

- 4.1. «Sotuvchi» ning majburiyatlari:
- 4.1.1. Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan mahsulotni «Xaridor»ga shartnoma imzolangandan keyin 10 bank ish kuni ichida berishga;
- 4.1.2. O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy- huquqiy bazasi" to'g'risidagi Qonun, "Fuqarolik kodeksi" va xo'jalik shartnomalari to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishi;
- 4.1.3. Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida «Xaridor»ga mahsulotni yetkazib berish;
- 4.1.4. Tegishli darajada sifatli mahsulot yuborilganligi to'g'risida bildirish (xabarnoma) olgandan so'ng sifatli bo'lmagan mol-mulkni 1 ish kuni ichida almashtirib berish yoki ushbu shartnomaning 1.3-bandiga asosan sifatli bo'lmagan mahsulot bahosini qaytarib berish.
- 4.2. «Xaridor» majburiyati:
- 4.2.1. Maxsulotni qabul qilish dalolatnomasini tuzgan holda ushbu shartnomada va qonun xujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab muddatida mahsulotni qabul qilib olish;
- 4.2.2. O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi" to'g'risidagi Qonun, "Fuqarolik kodeksi" va xo'jalik shartnomalari to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishi;
- 4.2.3. Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mahsulot kelib tushgani aniqlangandan keyin, bu xaqda dalolatnoma yozilib, 1 ish kuni ichida «Sotuvchi»ni ogoxlantirish;
- 4.2.4. Maxsulotning bahosini ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda to'lash.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

- 5.1. Mahsulot berish vaqtida shartnoma bandlariga to'liq rioya qilmaganligi uchun aybdor taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.
- 5.2. «Sotuvchi» mahsulotni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilganligi va to'liq yetkazib bermaganligi uchun «Xaridor»ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim;
- 5.3. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar yoki qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, «Xaridor» tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, «Sotuvchi»dan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20

foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.

5.4. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan sifatlardagi hamda butlashdagi mol-mulk berilmagan bo'lsa «Xaridor» yetishmayotgan qismlar qiymatini qo'shgan holda, «Sotuvchi»dan but bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

5.5. «Sotuvchi» «Xaridor»ning talabini olgan paytdan boshlab, 15 (o'n besh) kunlik muddat ichida tovarlarni butlab berishi shart.

5.6. Idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun «Sotuvchi» «Xaridor»ga bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.7. Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek «Sotuvchi» shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun «Xaridor» yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

5.8. Tovarlarni haqini to'lashdan bosh tortganlik uchun «Xaridor» mahsulot «Sotuvchi»ga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.9. Yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun «Xaridor» «Sotuvchi»ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

5.10. Jarima to'lash taraflarni shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

6. KORRUPSIYAGA QARSHI KO'SHIMCHA SHARTLAR

6.1. Taraflar shartnoma tuzushda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganida so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy xarakterli sodir qilinmaslikka kelishib oladilar.

6.2. Taraflarda shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

6.3 Xar bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq, munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki xar qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi xarakterli amalga oshirishi mumkinligi xaqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakterlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

6.4. Taraflar davlat xizmatlari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zlarining ijroviy o'rginlari, mansabdor shaxslari va xodimlari xar qanday vaqt va shakilda quydagi xarakterlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchunchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi):

a) nazorat qilivchi o'rginlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko'rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa soxalarda qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tUSDagi ustunliklar ega bo'lishi yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga;

b) qonunga xilof ravishda olinadigan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olinagan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirilishi, yoxud almashtirilishi yo'li bilan uning kelib chiqishi qonuniy tus berishi, bundan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan xaqiqiy egalik xuquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirishga;

d) korrupsiyaga oid xuquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyik o'tkazish yoki taxdid qilish. Ushbu xolat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni xamda vakolatli davlat o'rginlarini darxol xabardor qilishi shart.

6.5. Taraflar tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan xujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa xarakterlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan xarakter qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyuterlar, xuquqshunoslari, xisobchilar, ular nomidan xarakter qiluvchi boshqa vakillarga) nisbatan quydagi xarakterlarni amalga oshirishlari shart; -korrupsiyaviy xarakterli yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy xarakterlarga nisbatan amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik; ularni faqat taraflarning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish; - ularga

konunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan xaq miqdoridan asosiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

6.6. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan xarakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga belgilangan majburiyatlar buzulganligi xolatlari xaqida xabar berilganligi uchun ularga ta'ziyq o'tkazilmasligini kafolaydilar.

6.7. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi shartlarning 6.4 va 6.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzulishiga yo'l qo'yilganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu xaqda zudlik bilan xabardor qilish va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar qo'shilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoydabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalar xaqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga xaqli.

7. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Urush e'lon kilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, embargo, yer qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.

7.2. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uch oy uzluksiz davom etsa, taraflar, bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilishi mumkin.

8. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR KILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ikkala taraf tomonidan yozma ravishda tuzilib, imzo qo'yilgandan keyingina yuridik kuchga ega bo'ladi.

8.2. Taraflardan birining talabi bilan xo'jalik shartnomasi iqtisodiy sudning qaroriga binoan faqat ikkinchi taraf xo'jalik shartnomasini jiddiy ravishda buzgan yoxud qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

9. NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

9.1. Ushbu shartnomada yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi.

9.2. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan yoki taraflarning kelishuviga binoan - hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Ushbu shartnoma ikkala taraf uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lib 2 nusxada tuzilgan, xamda ushbu shartnoma hamda unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 122-moddasiga asosan ular g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi.

10.2. Shartnomaning amal kilish muddati 2022 yil 31 dekabrga qadar.

11. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI.

«SOTUVCHI»

«XARIDOR»

«GRAND WOODWORKERS» MCHJ

Urganch shahar 93-son maktab - internat

Manzil: Urganch tuman Yukoridurman qishlog'i

Manzil: Urganch shahar Samarqand kucha 98 uy

Mergan ovul MFY

Sh/xr:100021860334017092300075001

Tel: 97-857-00-89

INN: 201 942 966 OKONX: 92310

x\r: 2020 8000 0055 4673 4001

Moliya vazirligi gaznachiligi

Bank: TOSHKENT SH. AT "ALOKABANK"

x\r: 23402000300100001010



BOSH OFISI

INN: 309 708 305 MFO:00401

M.O.

U. Yuldashev



XKIKM Markaziy bank Toshken shahar

INN: 201122919

MFO: 00014

M.O.

Z. Kutlimuratova

	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	ZUMRAD KUTLIMURATOVA MASHARIPOVNA
	Imzolangan sana	21.11.2022 17:15
	Hujjat kodi	DD6337252002
	Hulosa kodi	ML2708874661

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

ML2708874661

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **Oldi-sotdi shartnomasi**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: 93-SON
SANATORIYA TURIDAGI SUYAK KASALLIGIGA MOYIL BOLALAR
MAKTAB-INTERNATI tomonidan 21.11.2022 yilda kiritilgan.

Shartnoma loyihasi amaldagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi,
O'zbekiston Respublikasi 29.08.1998-yildagi 670-I-son "Xo'jalik yurituvchi subektlar
faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ-
huquqiy hujjatlar asosida huquqiy ekspertiza qilindi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish
maqsadga muvofiq.

**Urganch shahar
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:**



Q.X.RAJAPOV

21.11.2022